

---

## QUMTEPA MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI



Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov aholining turli qatlamlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni kengaytirish, mavjud dolzarb muammolarni aniqlash, ularni bevosita joyida bartaraf etish yuzasidan Qumtepa mahalla fuqarolar yig'inida navbatdagi sayyor qabulini o'tkazdi. Mahalla fuqarolar binosida tashkil etilgan tadbirda Xalq qabulxonasi Qo'shtepa tumani bo'limi mudiri R.Abdullayev, tuman hokimining o'rinbosarlari, tegishli bo'lim, tashkilot rahbarlari hamda murojaatchilar ishtirok etishdi.



Qabul davomida aholi mahalladagi yo'llarni tuzatish, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, kredit, uy-joy bilan bog'liq muammolari bilan murojaat qilishdi.

Tuman rahbari barcha murojaatlar yuzasidan har bir soha rahbariga muammoni o'rganib, qonuniy va ijobiy hal qilinishini ta'minlash bo'yicha topshiriq berdi. Har bir murojaatni o'z nazoratiga oldi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook,](#)

2021-05-28 16:07:01